

Olim USMONOV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIDAGI MILLIY O'ZIGA XOSLIK

Har bir xalqning milliy o'ziga xosligi uzoq asrlar mobaynida shakllanadi. Xalq o'z qadriyatlarini asrlardan asrlarga opichlab o'tib, sayqallab, boyitib boradi. Boy tarixa, beqiyos ma'naviy xazinaga ega xalqimiz qadriyatlarini ham minglab yillar davomida misqollab to'plangan tajriba hosilasidir. Bu qadriyatlarning xazinabonlari, targ'ibotchilari ziyorolar, eng avvalo, adib-u shoirlarimizdir.

XX asr 60-yillarda adabiyotimizga bir guruh iste'dodli shoirlar kirib keldiki, ularning ijodi o'zbek she'riyatini yangi bir bosqichga olib chiqdi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi kabi ijodkorlarning asarları mash'um qirg'inlar va o'sha davr adabiyotida hukm surgan "konfliktsizlik" nazariyasi tufayli karaxtlashib qolgan adabiy fikrga jon baxsh etdi. O'zbek she'riyatida ro'y beragan bunday o'zgarishlar tasodifiy bo'lmay, balki umummilliyl ijtimoiy uyg'onishning estetik in'ikosi edi. Shoirlarimizning ijodiy izlanishlari tufayli xalqning dardi, orzu-umidlari, shonli kechmishi, azaliy qadriyatlar aks etgan chinakam milliy ruhga yo'g'rilgan she'rilar yaratila boshladi. Jumladan, Abdulla Oripovning 60-yillar avvalida yozilgan "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "Kuz xayollarri", "Odamlar", "Onamga xat" singari milliy ruh ufurib turgan, falsafiy mushohadaga boy she'rilarida poetik tafakkurning tobora xalqchillashib, yangilanib borganligi yaqqol bilinadi.

Xalqimizda "Ota rozi – Xudo rozi" degan maqol bor. Odatda, biror jiddiy ishni boshlashdan oldin oilada, eng avvalo, ota bilan maslahatlashiladi, uning roziligi, duosi olinadi. Ayniqsa, qiz farzand turmushga chiqishidan oldin otasining roziligini, uning oq fotihasini olishi shart. Ammo ba'zan ikki yosh bir-birini sevgani holda, qizning otasi qandaydir sabab bilan ularning nikohiga qarshilik qildi. O'tmishta otalarining bunday qarorlari tufayli, andisha sabab necha-necha o'zbek qizlari o'zlarining eng nozik tuyg'ularini bir umr qalbiga yashirib, armon bilan o'tganligi ma'lum. Shu bois Abdulla Oripovning 1963-yilda muhabbat mavzusida yozilgan she'reni shunday boshlanadi:

*Jo'nar bo'ldim men bundan diltang,
Yo'llarimga qarab qolding sen,
Sochginangni tarab qolding sen...¹*

Lirik qahramon sevgilisi yonidan diltang ahvolda qaytmoqda. Bunga sabab javobsiz muhabbat emas, aksincha, qiz u bilan ketishga, har qanday turmush mashaqqatlarini birga yengib o'tishga rozi. Lekin qiz sharqona, o'zbekona odob-axloq doirasida tarbiyalangan farzand sifatida ota irodasiga qarshi chiqqa olmaydi:

*Sen dedingki: "Bo'lsaydim yulduz,
Osmonlardan boqsam-da sizga,*

*Tushishga yo'l topardim, esiz,
Otam oq yo'l bersaydi bizga..."*

Ikki yurak bir-biriga talpinadi. Biroq "badjahl ota" qizining qalbidagi pokiza tuyg'ularini e'tiborga olmaydi.

*O, bilaman, badjahl otang,
Ostonangga yo'latmas meni,
Ishonmaydi sen sevgan yorga.
Uzoqlarga jo'natmas seni,
Ketar bo'lsak ikkimiz birga.
Bilaguzuk taqibdi otang.
Qo'lginangni bog'lab bir yo'la.*

Lirik qahramon tabiatida isyonkorlik ruhi seziladi. U sevgilisini

muhabbati uchun kurashishga, hatto, birga qochib ketishga undaydi. Biroq andisha, hayo-ibo kabi o'zbekona qadriyatlar ruhida tarbiyalangan qiz bunga rozi bo'lmaydi.

Xalq hayatini, urf-odatlari, qadriyatlarini chuqur bilsish, uning orzu-umidlari bilan yashash ijodkorning asarlariiga milliy ruh bag'ishlaydi. Lirik qahramon muayyan millat vakili emas, balki inson sifatida namoyon bo'лади. Shoир lirik qahramonning olijanob, yuksak tuyg'u va kechinmalarini ochish orqali milliy xarakterini ochib beradi. Bunday xususiyat Abdulla Oripovning "Odamlar" deb nomlangan she'rida ham yorqin aks etgan.

... Uzoq yo'l yurib, horigan yo'lovchi kechga yaqin bir ovulga yetib keldi. Ovuldag'i uylardan biri yonida turgan kishidan yo'l so'radi. Uy sohibi unga manziliga olib boruvchi yo'lni tushuntirdi. Shundan so'ng yo'lovchi o'z yo'liga ravona bo'ldi, uy sohibi ham o'z ishlarida davom etdi...

Voeqa shu tarzda kechishi ham mumkin edi. Lekin asrlardan-asrlarga eng yuksak insoniy fazilatlarni, ulug' ma'naviyatni opichlab o'tayotgan xalqning vakili bunday qilmaydi. Chunki bu xalqning ruhiyatiga samimiylik, mehmondo'stlik singib ketgan. Hatto piyolasida choyning shaması tik tursa, musicha don tashlasa, buni mehmon kelishiga yo'yadi. "Mehmon – atoyi Xudo", "Qo'noq kelsa, qut kelar", "Odam bor joyga odam keladi" kabi o'nlab maqollar, hikmatli so'zlar bu xalqning tilididan tushmaydi. Mehmon kelsa, uyining to'riga o'tkazib, dasturxonga eng tansiq taomlarini qo'yadigan, borini baham ko'radigan bu xalq vakili qosh qoraygan mahali adashib, yo'l so'rab turgan yo'lovchiga:

*Ey, yo'lovchi, bo'la qol qo'noq,
Uyda borin ko'ramiz baham.
Tag'in o'zing bilasan, biroq
Qosh qoraydi, yiroqdir yo'l ham,² –*

deydi. Uy sohibining bu taklifida iltimos, unga yalini-

ish ohangi seziladi. Chunki u mehmon kelgan uyga qut-baraka kirishini biladi. U mehmondan biror manfaat olish ilinjida emas. Mezbon savob olishni istaydi, mehmonning shirin suhabatidan umidvor bo'ladi. Chunki u bu dunyoda odam odamga g'animat, diydor g'animat ekanligini chin dilidan his qiladi.

Yo'lovchi ham shu xalq vakili. U mehridaryo xalqi borligini, mehmondo'stlik qoidalarini, ajodolarining "Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber" naqlini doim yodida tutadi.

*Yo'ichi qolar ovulda, mezbon
Keltiradi topgan-tutganni.
Otamlashar so'ngra ikkovlon,
Yodga olib o'tgan-ketganni.
Horg'in yo'ichi mudrar ichib choy,
Cho'ziladi mezbon ham asta.
Tongda yo'ichi tovush qilar: – Hoy,
Men ketdim. – Qol! – Rahmat.
Shu bas-da!*

Bu dunyoda yo'l so'rason, pul so'raydiganlar bor, joy so'rason, hamyoningga qaraydiganlar bor. Ammo

ota-bobolarimiz joy so'raganga jonini poyondoz qilib kelgan, uyi tor bo'lsa ham ko'nglini keng qilgan. Mehmon xayrashar chog'ida mehmonorchilikdan ko'ngli to'lib, "Rahmat!" desa, shuning o'zi etarli, deb bilishgan.

*Ajralishar, ular hattoki,
Ismlarin so'rashmaslar ham.
Ular qayta uchrashar balki,
Balki qayta uchrashmaslar ham.*

Bor-yo'g'i 16 misradan iborat bu she'r xalqimizga xos odamgarchilik, insonparvarlik haqida, o'zbekka xos eng go'zal xislat – mehmondo'stlik, savobtalablik to'g'risida. Zarrada quyosh aks etganidek she'nda kundalik turmushdagi oddiy bir hodisa misolida xalqimizga xos eng ulug' qadriyatlardan biri badiiy aks ettirilgan. Go'yo musavvir azaliy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan xalq hayotining bir lavhasini matoga chizgan. Ijodkor shu birgina voqeа misolida xalqimizning ruhiy olami go'zalligi, ma'naviy boyligi, azaliy qadriyatlarga, sadoqatini, bunday qadriyatlar eldoshlарimizning qon-qoniga singib ketganini o'ziga xos tarzda ko'rsatib bergan.

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-jild, – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. 40-bet.

²O'sha manba. 30-bet.

Abdulaziz QOSIMOV,
tadqiqotchi

FRANS KAFKA HIKOYALARIDA OTA OBRAZI

Asli ismi Anshel bo'lgan Frans Kafka 1883-yil 3-iyulda Praga shahrida dunyoga keladi. Adib nemis tilida ijod qilgan, chunki Kafka tug'ilgan paytda mamlakat Avstriya-Vengriya deb atalardi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu davlatda asosiy til nemis tili hisoblanardi. U 1924-yil 3-iyunda xastaligi tufayli Avstriyaning Kierling shahridagi sihatgohda vafot etadi. Frans Kafka 3 ta roman ("Jaryon", "Qasr", "Izsiz") va ko'plab hikoyalar muallifidir.

Frans Kafkaning aksariyat asarları, asosan, uning o'limidan keyin, uning xohishiga qarshi o'laroq, do'sti Maks Brod tashabbusi bilan chop etiladi. Bu asarlar Jahan adabiyotining sara asarları sirasiga kiradi.

Uning "O'n bir o'g'il" hikoyasi 1916-yili yozilgan bo'lib, 1920-yilda "Qishloq vrachi" hikoyalar to'plamida chop etiladi. Hikoya o'n bir o'g'lidan norizo otaning shikoyati tarzidagi nasriy monologidan iborat.

Ota o'zining o'n bir o'g'lini turlicha tasvirlaydi. U har bir o'g'lidan kamchilik topadi. Hattoki, ularning ko'rkmilik, jiddiylik, kirishimlilik, serfikrlilik singari ijobiy xislatlarini ham salbiy baholaydi. Faqatgina yettingchi o'g'ilni ota o'zining davomchisi bo'lishini xohlaydi. Nega aynan shu o'g'li ekanligi kitobxonga noaniqligicha qoladi. Vaholanki, otaning aynan shu o'g'il kelajagini yo'iga qo'ya olishiga ko'zi yetmaydi. Ota nega shu o'g'lining farzan-

dlari bo'lishini va farzandlarining farzandlari dunyoga kelishini istashiga hikoya davomida aniqlik kiritilmaydi. Kuchsiz o'n birinchi o'g'ilning nigohida ota oilani parokanda qila olishdek shum xabarni uqib oladi.

Hikoyaning oxirgida o'n birinchi o'g'il bilan o'ziga xos dialog yuzaga keladi, ammo bu ham otaning o'g'il nigohida o'qigan taxminlari, xolos.

Aslida Kafkaning "O'n bir o'g'il" hikoyasi biografik xarakterga molik bo'lib, hikoya muallifning aynan o'zi haqidadir. Bundan tashqari, Frans Kafka hikoyadagi o'n bir o'g'ilning har birini o'zining boshqa hikoyalarida tasvirlab beradi. Masalan, ikkinchi o'g'ilning "xususiyatlari" va "nuqsonlari" "Qonun oldida" afsonasidagi qahramonga mos kelsa, sakkizinch o'g'ilning tasvirlari "Idish ritsar" hikoyasida keltiriladi. Do'sti Maks Brod Frans Kafkaning "O'n bir o'g'il haqidagi hikoyalar ustida ishlayapman" degan so'zlarini eslab o'tadi. Ko'rinib turibdiki, o'n bir o'g'ilni turli hikoyalarda alohida keltirib o'tgan bo'lsa ham, Frans Kafka yana bir marta ularni bitta hikoyaga jamlaydi.

Otasi bilan Frans o'rtasidagi munosabat shu darajaga borib yetganki, ular bir-birlari bilan faqat nigohlari orqali gaplashishgan. Agar hikoyadagi o'n bir o'g'ilning alohida-alohida tasvirlanishiga e'tibor berilsa, har birida